XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 - yil 30 - avgust VI-50-136-8-120-K/22 Sho‘rchi tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi ”Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tegishlicha tuman hududida tuman hokimi, tuman prokuraturasi, tuman ichki ishlar bo‘limi va tuman davlat soliq inspeksiyasi rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tashkil etilgan sektorlar hududlariga ayrim o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi ”Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tegishlicha tuman hududida tuman hokimi, tuman prokuraturasi, tuman ichki ishlar bo‘limi va tuman davlat soliq inspeksiyasi rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar tashkil etilib, mahallalar hududlari sektorlarga bo‘lingan edi.

2017-2022 yillarda tumanda mazkur qarorning ijrosini ta’minlash, sektorlar rahbarlariga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish, ularga biriktirilgan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish- ning ahvolini yaxshilash bo‘yicha bir muncha ishlar qilindi.

“Elbayon” mahalla fuqarolar yig‘inidan bir guruh fuqarolar 2022 yil aprel-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasiga 6 marta yozma murojaat, 2022 yil 25 avgust kuni viloyat hokimining sayyor qabulida viloyat hokimligiga og‘zaki murojaat qilib,

murojaatlarda mahalla fuqarolar yig‘ini 2017 yilda 4-sektorga biriktirilganligi, mahalla hududi 4-sektor shtabidan 10 kilometr uzoqlikda joylashganligi mahalla fuqarolari va faollariga katta qiyinchiliklar tug‘dirayotganligini bildirib, mahallani shtabi mahalla hududidan 800 metr uzoqlikda joylashgan 2-sektor hududiga o‘tkazishda amaliy yordam berishni so‘rab iltimos qilishgan.

Xalq deputatlari tuman Kengashi yozma murojaatlarni har tomonlama o‘rganib chiqib, ularning iltimosini qanoatlantirishni lozim deb topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi ”Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori ijrosini ta’minlash, tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar ishini yaxshilash hamda “Elboyon” mahalla fuqarolarining yozma murojaatlaridan kelib chiqib xalq deputatlari Sho‘rchi tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. “Elbayon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi 4-sektordan tuman prokurori rahbarlik qiladigan 2-sektorga o‘tkazilsin.

2. “Ko‘klam” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi 4-sektor shtabiga yaqin joylashganligi hisobga olinib, 2-sektor hududidan 4-sektor hududiga o‘tkazilsin.

3. 2-sektor rahbari, tuman prokurori F.Xoliqovga “Elbayon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yechimini kutayotgan muammolarni zudlik bilan o‘rganib chiqib, mutassaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari bilan birgalikda hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yaxshilash chora-tadbirlarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **Xudoyberganov B.X**